

KAYKOVUSNING “QOBUSNOMA” ASARIDAGI LEKSEMALAR TAHLILI

Mahmudova Sevinch

TerDU O‘zbek filologiyasi fakulteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14562623>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Kaykovusning “Qobusnoma” asaridagi leksemalar hamda undagi notanish, tarixiy so‘zlar haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek, asardagi tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlarning tahliliga to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Qobusnoma, lug‘at, leksema, grammatik xususiyatlar, so‘z o‘zlashtirish.

ANALYSIS OF LEXEMES IN KAYKOVUS'S "QOBUSNOMA"

Abstract. This article discusses the lexemes in Kaykovus's "Qobusnoma" and the unfamiliar, historical words in it. It also touches upon the analysis of words that are difficult to understand in the work.

Keywords: Qobusnoma, dictionary, lexeme, grammatical features, word acquisition.

АНАЛИЗ ЛЕКСЕМ В «КОШМАРЕ» КАЙКОВУСА.

Аннотация. В статье рассказывается о лексемах в произведении Кайковуса «Кошмар» и незнакомых, исторических словах в нем. Также обсуждается анализ трудных для понимания слов в произведении.

Ключевые слова: Кабуснома, словарь, лексема, грамматические особенности, усвоение слов.

“Qobusnoma” – Sharq va Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan axloqiy ta’limiy asar, fors-tojik badiiy nasrining birinchi va yirik yodgorligi (XI asr). Tabariston (Mozandaron) hukmdori Shams al-Maoliy Qobusning nabirasi Unsur al-Maoliy (Kaykovus, 1021—98) tomonidan fors tilida yozilgan (1082—83) va “Nasihatnomai Kaykovus” deb atalgan. “Qobusnoma” shu asarning o‘zbekcha tarjimasidir.

Muallif asarni o‘g‘li Gilonshohga bag‘ishlagan. Kaykovus og‘li Gilonshohga tarbiya berish unga ma’naviy meros qoldirish uchun shu asarni yozganligini ta’kidlaydi. U shunday deydi: “Har ota-ona umri davomida yiqqan terganlarini farzandiga qoldirib ketgisi keladi. Men ham shuni xohladim. Mening hayotim bo‘yi yig‘gan mana shu so‘zlarimni senga qoldirib ketyapman og‘lim” deydi Kaykovus. “Qobusnoma” asosini Qur’oni karim suralari, Muhammad (sav)ning faoliyati va ko‘rsatmalarini ifodalovchi hadislar, hikmatli hikoyatlar tashkil etadi. Asar 44 bobdan iborat.

Dastlabki 4 bobi Haqni tanimoq, Payg‘ambarlarning xilqati (yaratilishi), Alloh ne’matiga shukr qilmoq haqida bo‘lib, qolgan 40 bobi ota-onani hurmatlash, ilmiy bilimlarni, san’atni egallash, harb, savdo, dehqonchilik ishlari va hunarni o‘rganish, odoq-axloq qoidalariga rioya etish, farzand tarbiyasi, saxovat va juvonmardlik kabi ko‘plab masalalarni o‘z ichiga oladi.

Asarda hunar va ilm jamiyat taraqqiyotining asosiy omillari deb qaraladi. Odamlar uch guruhga bo'linib, ularning jamiyatda tutgan o'rni belgilanadi; odamlarning fazilatlari ham uch guruhga bo'linadi: aqllilik, haqgo'ylik, juvonmardlik. Kaykovus dunyodagi mavjudotni bir-biri bilan bog'liq va murosasiz deb talqin qiladi. U kishi ruhiyatini ham ikki guruhga bo'ladi: jismoniy sezgini modda, ruhiy hissiyotni esa "jon" bilan bog'laydi va bularning birini moddiy, ikkinchisini ruhiy hayot mahsuli deb ko'rsatadi.

Barchaga ma'lumki, Kaykovusning "Qobusnoma" asari g'arb va sharq mutafakkirlari tomonidan e'tirof etilgan, o'nlab tillarga tarjima qilingan farzand tarbiyasi haqidagi mufassal bayon hisoblanadi. Bilamizki, ko'plab kitoblarda biz tushunmaydigan, notanish tarixiy so'zlar ko'p keltiriladi. Ma'lumki, til doimo o'zgarib turadi.

Ayniqsa, tilning leksikasi tez o'zgaruvchan bo'ladi. Tilning leksik qatlami asrlar mahsuli hamdir, ya'ni bunda har bir tarixiy davr, ijtimoiy taraqqiyot bosqichi o'z ifodasini topadi. So'zlar hamda til birliklari eskiradi, yangi so'zlar paydo bo'ladi. Shuningdek, "Qobusnoma" asari ham bundan holi emas. Kitobxon bu asarni birinchi o'qiganida yaxshi anglab ololmasligi tabiiy hol ammo qayta-qayta tahlil qilib o'qisa ayni muddao.

Shu o'rinda bir narsani ta'kidlab o'tmoqchimanki, asarni takror o'qishdan ko'ra pastki qismida berilgan lug'atlar bilan ishlab, tanishib chiqish maqsadga muvofiqdir. Lug'atlar barchaga barobar xizmat qiladi, ya'ni undan barcha soha vakillari foydalanishi mumkin. Lug'at tuzish ma'lum maqsadlarni o'z ichiga oladi.

Insoniyat dunyoga kelibdiki, albatta, so'z bilan ish tutadi. So'z olamiga duch keladi va undan foydalanadi. Nazariy yondashuvda leksik sath birligi tilshunoslikda leksema atamasi bilan nomlanadi. Leksema tilshunoslikning eng muhim va markaziy tushunchalaridan biri. [1,101]

Asarni o'qiyotgan kitobxon leksemalarning izohini ko'rib biroz o'ylanishi mumkin.

Masalan: asarning o'ttiz birinchi bobi, "ilm talabi va qozigarlik zikrida" shunday jumla keltiriladi: *"Ey farzand, agar muzakkir bo'lsang, xofiz bo'lg'il va ko'p narsani yod qilg'il. Hech kishi bila **jadal** va munozara qilmag'il"* [2,133] Bu jumlaning o'qigan kitobxon birinchi o'rinda "jadal" degan so'zni shunchaki "tez" ma'nosini bildiruvchi leksema deb bilishi tabiiy hol. Lekin bu so'zning izohiga qaraganimizda "jadal" so'zining ma'nosi - **tortishuv, munozara, janjal** deb keltirilgan ekan. "**Jadal**" so'zi Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq" asarida ham keltirilgan. Asarda bu so'zning ma'nosi - **intilish** deb berilgan. Bunday so'zlarga ko'plab misollar mavjud. Masalan: Mahmud Koshg'ariyning "Devon-u lug'otit-turk" asarida "**qayra**" so'zi keltirilgan. Bu so'zimizning ma'nosi - **qayramoq**, ya'ni o'tkirlamoq (pichoqni qayramoq, tishni qayramoq). Asarda esa bu so'zning ma'nosi - **yana** deb berilgan. Lug'at bundan 450 yil muqaddam ilgari tuzilgan bo'lib uni o'zbek tilida yaratilgan dastlabki izohli lug'at deyishimiz mumkin.

1) G'ayrat-rashk. Bu so'zning kuch degan ma'nosi ham bor.

- 2) Maraka-urush maydoni. Hozirda a'za degan ma'noni bildiradi.
- 3) Ravish-yo'l. Hozirda so'z turkumi ma'nosida.
- 4) Qoni-qanoatli
- 5) Qo'lmoq-so'ramoq va boshqalar.

Bu leksemalar qadimda shunday ma'no ifodalagan bo'lsa-da, lekin hozirda ham ularning yangicha ma'nolari yo'q emas, albatta. Tillarni bir-biriga muqoyasa qilib, taqqoslab o'rganish shuni ko'rsatadiki, ba'zi tillardagi leksemalarning ma'nolari, shakllari, grammatik xususiyatlari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. [3,186] Mening fikrimcha, yuqorida berilgan so'zlar qadimdan bizga o'zlashib ketgan. Chunki, ularning hozirda yangi ma'nosi bor. Misol uchun, ilgari momo-bobolarimiz sabzini boshqa nom bilan ataganlar, ya'ni "kachiri" deb. To'g'ri biz bulardan bexabarmiz chunki ayni vaqtda sabzini hamma bir xil nom ostida qo'llaydi. Dunyo tilshunosligida tillarning muntazam boyib borishiga xizmat qilayotgan so'z yasalishi har bir tilning taraqqiyot darajasini, uning rivojlanib borish yo'llarini ko'rsatib beruvchi, boylik ko'lamini belgilovchi muhim omillardan biri sanaladi. [6,3] Shuningdek, o'zbek tilshunosligida A.G'ulomov so'z yaslashiga doir eng muhim ilmiy tadqiqotlar olib borgan olim hisoblanadi. [6,9] So'z o'zlashtirish boshqa til so'zlarining o'zbek tiliga olinishidir.

So'z o'zlashtirish til taraqqiyotining qonuniy ko'rinishidir: xalqlar o'rtasidagi iltimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy va ilmiy aloqalar bir tildan ikkinchi tilga so'z va atamalarining o'tib turishini taqozo qiladi. [4,195]

Lug'atlarning yaratilishi uzoq tarixga borib taqaladi. Turkiy leksikografiyada lug'atlar XI-XII asrlarda yaratilgan bo'lsa, Evropada, xususan, Rossiyada lug'at tuzish jarayonlari XVII asrlarda boshlangan. Demak, yuqorida ta'kidlab o'tganimdek, asarlarda keltirilgan lug'atlarni yod olib hamda o'rganib chiqish asarni yanada mukammal tushunishga va tez eslab qolishimizga yordam beradi. Lug'atlar bilan ishlash kitobxonning so'z boyligini oshiradi hamda dunyoqarashini kengaytiradi. Leksema haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'ldik. Shu o'rinda leksemalashuv hodisasiga ham to'xtalib o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Internet manbalarida ham tildagi ayrim elementlar va birikmalarining leksemaga aylanishi leksemalashuv hodisasi deb ataladi. O'zbek tili materiallari ham leksemalashuvga tortilgan erkin birikma va hosila leksemaning ma'nolari o'rtasida umumiylik, yaqinlik mavjudligi, xatto erkin birikma qismlarining ma'nolari leksemalashgan birlikda to'liq aks etishini ko'rsatdi. [6,36] Leksemalashuv hodisasining mohiyati shundan iboratki, bunda u yoki bu grammatik shakl o'z paradigmasidan ajralib chiqib, mustaqil so'z, ya'ni leksema sifatida faoliyat ko'rsata boshlaydi. Shu o'rinda aytib o'tmoqchimanki, leksemalashuvni so'z yaslashi bilan bog'liq hodisa sifatida o'rganish ayni muddao.

REFERENCES

1. R.Sayfullayeva Hozirgi o'zbek tili/ B.R.Mengliyev, L.R.Raupova, M.M.Qurbonova, M.Q.Abuzalova, D.N.Yo'ldosheva/. Darslik.-Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo". 2020. 200 b
2. Qobusnoma. Kaykovus. Nashrga tayyorlovchilar: Subutboy Dolimov, Ulug'bek Dolimov. -Toshkent: Yoshlar matbuoti,2024.-224b
3. Tilshunoslik nazariyasi. Z.Xolmanova-Toshkent: Spectrum Media Group,2022.-320b
4. H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent- Talqin-2005.-138b
5. Q.Mahmudov.Ahmad Yugnakiyning ``Hibatul haqoyiq `` asari haqida.
6. Xolmuhamedov.B. O'zbek tilida leksemalashuv. Monografiya.-Samarqand:``Ipak yo'li`` nashriyoti,2021.-158b
7. <http://en.wikipedia.org>.Computitional linguistics.